

O'ZBEK TILI MUSIQA TERMINHLARI TADQIQI

Eshbo'tayeva Shohsida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti o'qituvchisi

shohsidaeshbotayeva92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14406364>

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa terminlarining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi tadqiq etilgan bo'lib, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazardan tahlili hamda antroposentrik jihatdan ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek tilshunosligi, musiqa termin, tasnif, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur, lingvokulturologiya.

O'zbek tili terminologik tizimi tarkibida musiqa terminlari salmoqli qismni tashkil qiladi. Musiqa terminlari ilk bor 1981-yilda Sami Azizov tomonidan tadqiq etilgan¹. Tadqiqotchi musiqani insonning ma'naviy dunyosi, uning intilishlari, his-tuyg'ulari, istaklari badiiy shaklda ifodalanishi deya ta'riflaydi. Musiqa va qo'shiqda xalq tarixi va ruhi yashaydi deya musiqa san'atining lingvokulturologik xususiyati borligiga urg'u beradi.

S.Azizov o'zbek tili musiqa terminlarini quyidagicha tasnif qiladi:

- 1) musiqiy cholg'u nomlari va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar;
- 2) musiqiy janrlar va ularning turlarini anglatuvchi terminlar;
- 3) musiqiy jarayonlarni bildiruvchi terminlar;
- 4) musiqiy o'lchovlarga oid terminlar.

Olim o'zbek musiqa terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan davr sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarini qayd etadi. Bu davrda rus tili orqali bevosita hamda bilvosita musiqa terminlari o'zbek tili tarkibiga kirib kelganligini ta'kidlab, tadqiqotda aynan qabul qilingan yoki kalka usulidan foydalangan holda o'zlashgan musiqa terminlariga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan musiqa terminlarini ham tasniflaydi. Biroq tadqiqotchi biror o'zlashmaga uning mazmunini o'zida aks ettirgan o'zbekcha muqobilni tavsiya etmaydi. Buning sababi o'sha davrdagi tilga siyosati bo'lishi mumkin. Ushbu tadqiqotda musiqa terminlari, asosan, leksik va grammatik jihatdan o'rganilgan bo'lib, ularning talay qismi bugungi kunga kelib, istorizm yoki arxaizimga aylangan. Darhaqiqat, musiqa va uni ifodalovchi birliklarda xalq ruhiyati mujassam ekani, musiqa terminlarining o'ziga xos semantik xususiyatlari, madaniyat va til mushtarakligi hamda bu jarayonda san'at terminlarining o'rni kabi jihatlar til rivojida muhim. Shu ma'noda musiqa terminlari turli tadqiqotlar tarkibida ham o'rganilgan. Jumladan, H.Dadaboyev harbiy maqsadlarda foydalanan musiqa terminlariga: *naqàra, nafir, körägä, kös, burğu* kabilarni misol qilib keltiradi.² Turkolog Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida voqelangan: *xànanda, sàzanda, muğanniy, un tart, musiqiy fani, arğanun, qànun, qobuz, yatağan, ud, vizràb* kabi terminlarning turkiy xalqlar uchun umumiylar xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi.

¹ Азимов С. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.


² Дадабоев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 186.

Shuningdek, N.Shodmonov³ va Z.Aripovning⁴ tadqiqotlarida turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga fors va arab tillaridan ko'plab terminlar o'zlashgani aniqlangan.

Tadqiqotchi U.Muminova Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari leksikasini tahlil etib, asarda XIV-XV asrda faol bo'lgan musiqa asboblari va kuy bilan bog'liq bo'lgan *ğijjak, ud, nay, čaǵāna, qanun, tanbur, nāla, rubāb, qobuz, čaŋ* kabi musiqa terminlarini keltirib o'tadi.⁵ Z.Xolmanova "Boburnoma" asari leksik tahlilida musiqaga oid terminlar sifatida *peshrav, soz, asbob, qonun, parda, nag'amot, chang, tor; sozandalar chargasi, raqs, raqqosliq* kabi terminlarni ajratib, ularning matn tarkibidagi semantik xususiyatiga e'tibor qaratadi⁶. Asarda keltirilgan musiqaga oid terminlarni: "kuy" *tushunchasini bildiruvchi terminlar, kuy nomlarini bildiruvchi terminlar, kuy bastalovchi shaxs tushunchasini bildiruvchi terminlar, musiqa asboblari nomlari* kabi mavzuviy guruhlarga ajratadi. Asar leksikasidagi ayrim antroponimlar tarkibidagi nisbalar musiqa asboblari nomlaridan shakllanganini aytadi: *Udiy, Noyi, G'ijjakiy*. Bunday ismlar shaxsning kasbi-kori, ajdodlarini aks ettirganligi haqida ma'lumot beradi⁷. Binobarin, o'zbek tilshunosligida yaratilayotgan ko'pgina tadqiqotlar tarkibida musiqa terminlari alohida mavzuviy guruh sifatida o'r ganilishi musiqa terminologiyasi tadqiqiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois musiqa terminlarining jahon va o'zbek tilshunosligidagi semantik tasnifiga tayangan holda o'zbek tili musiqa terminlari quyidagicha guruhlandi:

- 1) musiqa cholg'ulari va ularning qismlarini ifodalovchi terminlar: *dutor, kosa, quloq;*
- 2) musiqa janrlari va ularning turlarini ifodalovchi terminlar: *maqom, ushshoq, ashula, katta ashula, qo'shiq, mehnat qo'shiqlari, estrada, jaz, milliy estrada;*
- 3) musiqiy o'lchovlarni ifodalovchi terminlar: *duol, kvartol, detsimol, 2/2, 2/4;*
- 4) musiqiy kasblarni ifodalovchi terminlar: *cholg'uchi, qo'shiqchi, o'yinchchi, operachi, dutorchi, changchi, doyirachi;*
- 5) grafik terminlar: *A (lya), C (do), T (tonika), D (dominanta), dur, moll, mf;*
- 6) tempga oid terminlar: *allegro, adajio, largo, lento;*
- 7) dinamik terminlar: *forte, piano, metso piano, metso forte;*
- 8) musiqiy belgilar:




³Шодмонов Н. Абдураҳмон Жомийнинг мусиқий атамалари. Афтореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Toshkent, 1997.

⁴Арипов З. Араб мусиқа терминлари тизимининг шаклланиши ва тараққиёти (Х-XV асрлар Ўрта Осиё олимларининг мусиқашуносликка oid асарлари асосида). Дисс: Филол.фун.док. (DSc). – Тошкент, 2019.

⁵ Muminova U. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari leksikasi. Дисс.филол. фан. фалс. док. (PhD). Guliston, 2024. – B.17.

⁶ Холманова З. "Бобурнома" – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 202 – 203.

⁷ Кўрсатилган асар. – Б. 204.



Tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, musiqa terminlari jahon tilshunosligida qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqr tahlil etilgan.

References:

1. Азимов С. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981.
2. Дадабоев Ҳ. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 186.
3. Шодмонов Н. Абдураҳмон Жомийнинг мусиқий атамалари. Афтореф.дисс. ... канд. филол. наук. – Toshkent, 1997.
4. Арипов З. Араб мусиқа терминлари тизими ning шаклланиши ва тараққиёти (X-XV асрлар Ўрта Осиё олимларининг мусиқашуносликка оид асарлари асосида). Дисс: Филол.фан.док. (DSc). – Тошкент, 2019.
5. Muminova U. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasi. Дисс.филол. фан. фалс. док. (PhD). – Guliston, 2024. – В.17.
6. Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 202 – 203.